

QUSHLAR (AVES) SINFI VAKILLARINING BIOSFERADAGI AHAMIYATI

Ne'matov Abduahad

ADPI Aniq vatabiiy fanlar fakulteti
biologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Olimova Muxlisa Odiljon qizi

ADPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
biologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7883572>

Annotatsiya: Ushbu yozilgan tezisda qushlarning biosferada tutgan o'rni, ularning inson ho'jaligidagi ahamiyati to'g'risida, zararli hamda foydali qushlar haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: inkubatsiya, parranda, zararli, foydali.

Insonlar hayvonlarni qadimdan honakilashtirib, ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanib kelishgan. Qushlar, parrandalarning ham qishloq ho'jaligidagi ahamiyati katta hisoblanadi. Hozirgi kunda yer yuzida 100 milliardga yaqin qush turlari uchraydi. Qushlardan turli maqsadlarda foydalaniladi. Masalan parrandalar go'shti, tuxum mahsulotlari, parlar olish uchun parvarish qilinsa, boshqa qushlar hasharotlarni va kemiruvchilarni qirib foyda keltiradi. Yovvoyi qushlarni ko'pchiligi esa o'laksalar bilan oziqlangani sababli tabiiy sanitarlar hisoblanadi. Kaklik, bedana, bulduruq, qur, karqur, qirg'ovul, o'rdak, g'oz kali qushlar go'shti uchun, dengiz qirg'oqlarida uya qurib yashaydigan Gaga esa o'z uyasiga qalin momiq parlar to'shaydi. Gaganing momiq parlari juda yumshoq va issiq kam o'tkazganligi sababli sanoat sohalarida foydalaniladi. Qushlarni bundan tashqari biosferadagi ahamiyati katta bo'lib, ular o'simlik urug'larini tarqatishda ishtirok etadi. Kolibri, nektarchi qush esa gullarni chanlatadi. Qushlar tezagi azotga va fosforga boy bo'lganligi sababli o'g'it sifatida foydalaniladi.

Qushlar juda foydali hayvonlar ulardan turli maqsadlarda foydalanib kelimiz. Butun dunyo aholisi ham parranda mahsulotlarini sevib iste'mol qiladilar. Qadimda ham qushlardan keng foydalanilgan. Rim imperiyasi davridan o'tkan asr o'rtalarigacha qush patlaridan yozuv quroli sifatida, kabutarlardan esa uzoq masofalarga xabarlarini yuborish maqsadida foydalanib kelingan. Hozirgi kunda ham parrandachilik sohasi keng rivojlangan bo'lib, parrandalarni tez ko'paytirish maqsadida inkubatsiya yo'li bilan jo'ja ochirilib kelinmoqda.

Qushlarni foydali hayvonlar bo'lsa ham ular orasida foydali turlari bilan birgalikda zararli turlari ham uchrab turadi.

Foydali qushlar. Chittak, chug'urchuq, qaldirg'och, qizilishton, pashshaxo'rlar, jarqaldirg'och, olashaqshaq, to'rg'ay, quzg'un qishloq ho'jaligi zararkunandalarini yeb foyda keltiradi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra chug'urchuqlar koloniyalari bir oyda O'rta Osiyoda 100 mingga yaqin chigirtkalarni yeb quritadi. Lochinsimonlardan miqqiy, sor, bo'ktargi va ko'plab yapaloq qushlar kemiruvchi hayvonlar bilan oziqlanganligi sababli ularning ham foydasi katta. Masalan bir juft miqqiyt 1 oy davomida 180 ta yumronqoziq, 90 ta sichqonsimon kemiruvchilarni qiradi. Soykalar va sibir qarg'alari qarag'aylarni ko'payishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zararli qushlar. Qushlar qishloq ho'jaligiga foyda keltirish bilan birglikda ziyon ham keltiradi. Ularning don mahsulotlariga bo'lgan ta'siri sezilarni. Dala ispan chumchuqlari Qozog'istonda katta koloniyalar hosil qiladi va dehqonchilikka ziyon keltiradi. Boltatumshuqlar olcha bilan

oziqlanib ularga ziyon yetkazadi. Kurkunaklar asalar, qoravoylar baliqlar, yirtqich qushlardan qarchig'ay, qirqiylar qushlar bilan oziqlanganligi sababli ko'plab sohalarga zarar yetkazishi mumkin.

References:

1. S.P.Naumov "Umurtqali hayvonlar zoologiyasi" 1995
2. S.Dadayev, S.To'ychiyev, P.Haydarova "Umurtqalilar zoologiyasi" 2006
3. O.Mavlonov, Sh.Xurramov "Umurtqalilar zoologiyasi" 2006
4. C.P.Hickman "Integrated principles of Zoology" 2008
5. O.Mavlonov "Zoologiya" 2013
6. R.Eshchanov "Zoologiya va zootoksinologiya asoslari" 2015
7. O.Mavlonov, Sh. Xurramov "Umurtqasizlar zoologiyasi" 2002
8. S.Dadayev, K.Saparov "Umurtqalilar zoologiyasi" 2019



INNOVATIVE
ACADEMY